

ALALIYA TURLARI, ALALIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING OLDINI OLISH VA UNI KORREKSIYALASH

Bahriddinova Durdona Rustamjon qizi

NamDU defektologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi,

Xasanova Mashhura Maxammadsidiqovna

NamDU Ta'lim menejementi kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada alaliya, alaliyaning turlari, alaliyada olimlarning olib borgan ishlari, alaliyaning kelib chiqish sabablari, alaliyada olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar metodikasi, alaliyani davolash va uni oldini olish haqidagi fikrlar tizimi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Alaliya, sensor alaliya, sensamotor alaliya, korreksiya, nuqtning yo'qligi, eksperessiv nutq, imperessiv nutq.*

KIRISH:

Har qanday insonda nutq muhim o'rin egallaydi. Nutq oliy nerv faoliyati bo'lib, inson nutq so'zlashi va ravon muloqot qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Nutq – odamlar til orqali bir biri bilan muomala va aloqa qilishning alohida usulidir. Odam o'z nutqi orqali o'zining bilimlari, fikrlari, xislari va istaklarini boshqa kishilarga ayta oladi. Ammo hozirgi kunda nuqtning kechikishi yoki yo'qligi, nutqning umuman bo'lmasligi ham juda ko'p kuzatilmoqda. Bular turli xil omillarga sabab bo'lishi mumkin. Ulardan biri alaliya hisoblanadi. Alaliya-bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig'i nutq doirasining organik jaroxatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishidir.

Alaliya – bu nutqning umuman yo'qligi hisoblanadi. Foniatr R.Koen ishlarida “alaliya” termini artikulatsion kamchiliklar bilan shartlanmagan soqovlikning tavsifnomasi uchun qo'llanilgan. U bu buzilishlarni kar-soqovlik o'rniga eshituvchi soqovlik yoki idiopatik alaliya deb nomlaydi. Alaliyani o'rganishga kata hissa qo'shgan olimlar Gutsman, A.Libmann, M.V.Bogdonov-Berezovskiy, Freshels va shu kabi olimlar. Alaliyani o'rganishda uzoq vaqt davomida uning kelib chiqish sabablarini turlicha ko'rsatganlar. R.Koen, A.Gutsman, E.Fresheles, M.Zeeman, va boshqalarning izlanishlari natijasida, alaliya bolaning ona qornida yoki rivojlanish bosqichida shamollash yoki alimantar trofik moddalar almashinuvining patologik jarayoni natijasida kelib chiqadi. Alaliya – markaziy xarakterdagi organik



nutq buzilishi ham hisoblanadi. Alaliyada bosh miyaning ayrim po'stloq sohalari orqada qolishi bo'ladi. Bosh miyaning shu shakldagi rivojlanmaganligi tug'ma yoki bolaning nutqi shakllanishigacha yuzaga keladi. Alaliyada bosh miyaning jarahotlanishi perental yoki ilk perental davrda yuzaga kelish ehtimoli katta. Miyaning rivojlanmaganligi yoki erta jarohatlanishi nerv to'qimalari qo'zg'alanuvchanligining pasayishiga va asosiy nerv jarayonlari harakatchanligining pasayishiga olib keladi. Bunday jarayonlar esa bosh miya po'stlog'i to'qimlarining ish qobiliyatini pasaytiradi. Alaliya – nutqiy rivojlanishning vaqtinchalik funksional sustlashuvi emas. Bu nutq buzilishida nutqning rivojlantirishning barcha jarayoni markaziy asab tizimining patologik holati sharoitida kechadi. Alaliyaning ba'zi ko'rinishlari tashqaridan bolalarning normal rivojlanishining ilk bosqichlariga o'xshaydi. Biroq vaqt o'tishi bilan bular o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'p izlanishlar natijasida alaliya kasalligining klassifikatsiyasi uning kelib chiqish mexanizmi, darajasidan qat'iy nazar bir xil turda bo'lgan. Hozirgi kunga kelib logopedlar alaliyaning V.A.Kovshikov bo'yicha klassifikatsiyasidan foydalanadilar:

- Ekspressiv (motorika bilan bog'liq) alaliya
- Impressiv (sensorika bilan bog'liq) alaliya
- Aralash (sensomotor yoki motosensor) alaliya

Motorika bilan bog'liq alaliya miya bosh miya mag'iz qismining erta davrlardagi organik shikastlanishlari natijasida gapirish analizatorida buzilishlar paydo bo'lishidan kelib chiqadi. Bunday holatda bola atrofida gapirishni eshitadi lekin unga javob qaytara olmaydi. Zararlangan sohaga qarab: afferent motorika va efferent motorika bilan bog'liq alaliyalar farqlanadi.

Sensorika bilan bog'liq alaliyada po'stloq osti gapirish-eshitish markazida zararlanish bo'ladi. Bunday holatda markaziy eshituv va gapirish hujayralari zararlangan bo'ladi va natijada bola tovushlarni analiz va sintez qila olmaydi. Bolaning eshitish qobiliyati saqlangan bo'lsada lekin so'zlarni tushunmaydi.

Sensomotor yoki motosentor alaliyada yuqorida keltirilgan alaliyaning ikkala turi ham uchraydi bu holatda bolaning bosh miya mag'iz qismida va po'stloq osti markazida ham shikastlanishlar sodir bo'ladi. Ya'ni ikkita turning ham belgilari uchraydi.

Alaliyaning kelib chiqish sabablari:tilning kechikishi,buzilishi va hatto yo'qolishi og'zining shakllanishi paytida yoki tug'ilishidan keyin og'iz bo'shlig'ida jismoniy yirtiq bo'lishi mumkin.Binobarin,bola og'zini va tilini shakllantirishda sekin so'zlar hosil qilishi mumkin. Biroq, alaliyaga olib kelishi mumkin bo'lgan bir nechta sabablar,shu jumladan ba'zi bir jismoniy bo'lmagan sabablar mavjud:

- prenatal davrdagi shikastlanishlar:
- perinatal travma
- zaharlanish
- ish vaqtining patalogik uzayishi
- mexanik yordam bilan qiyin yetkazib berish
- eshitish qobiliyatini yo'qotish
- virusli va yuqumli kasalliklar

Alaliyani davolash va zaruriy davolash usullari alaliya darajasiga,sababi va og'irligiga bog'liq. Boshida nutq terapiyasi aralashuvning eng samarali va keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Boshqa tomondan,jismoniy nuqsonlar tufayli alaliyadan aziyat chekayotgan bolalarga qaratilgan aniqroq davolash usullari mavjud. Ushbu davolash usullaridan biri miofunktsional terapiya deb ataladi, bu yuz mushaklaridagi muvozanatni tuzatishga qaratilgan. Ushbu yordam odatda nutq terapevtlari tomonidan beriladi.

Shunday qilib alaliya nutqning yo'qligi bo'lganligi sababli, avvalo bola paydo bo'lish paytida boshlab xomilaning to'g'ri shakllanishiga bog'liq. Bola tug'ilgan paytida ham uning rivojlanish



davomida bolaning nutqiga alohida e'tibor berish lozim. Uning sabablarini oldindan o'rganib, kelib chiqishi va uni oldini olish bo'yicha alohida ko'rsatmalarga e'tibor qaratish lozim. Sababi bola rivojlangan sayin o'z fikrini nutqi orqali tushuntirishga harakat qiladi. Alalik bolalar esa nutqi orqali tushuntirishga qiynaladilar. Sababi ularda nutq rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun avvalo inson nutqiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Zero nutq inson faoliyatining eng oliy tafakkuridir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Y.Ayupova. Toshkent 2007-y.
2. K.P.Bekker M.Sovak Logopediya 1981-y.
3. L.R.Mo'monova tutilib gapiruvchilar uchun qo'llanma O'qituvchi 1980-y.
4. M.M.Xasanova. Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba'zi bir jihatlari. – Innovations in technology and science education scientific journal.VOLUME 2, ISSUE 14, 574-578-b.
5. Xasanova, M., & Shodmanov, Q. (2023). Maktab yoshidagi bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromini kelib chiqishi, rivojlanishi hamda uni bartaraf etish usullari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(12), 11–13. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/24020>
6. Xasanova, M. & Shodmanov, Q. Rivojlanishida nuqsoni – diqqat yetishmovchilik sindromi bor bolalarning tibbiy reabilitatsiyasi masalalari. «MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM: AN'ANA,TAJRIBA VA INNOVATSIYALAR» mavzusida respublika anjumani tezlari to'plami. – Nizomiy nomidagi TDPU. (2023). 650-653 betlar.
7. @avitsenna.uz

